Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
60111400 - O‘zbek tili va adabiyoti
1-bosqich yo‘nalishi talabalariga 1-semestr uchun
« O‘qituvchi nutqi madaniyati va davlat tilida ish yuritish » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma

TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2025-yil 14-oktabr

Fan dasturdagi mavzu tartib raqami	Mavzu	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi	4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi	5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi
1	“O‘qituvchi nutqi madaniyati” faniga kirish. Nutq madaniyati tushunchasi, tarixi. Fanning maqsadi va vazifalari	1) Nutq madaniyati tushunchasining mohiyatini izohlang va uning inson faoliyatidagi o‘rnini yoritib bering. Tayanch iboralar: til imkoniyatlari, nutqiy ko’nikma, ma’naviy kamolot, muloqot.	1) Nutq madaniyatining shaxslararo munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyatini izohlang. Tayanch iboralar: muomala, hurmat, tinglovchi, ijtimoiy munosabat.	1) Nutq madaniyati va shaxsning umumiy madaniyati o’rtasidagi aloqani misollar asosida tushuntiring. Tayanch iboralar: muomala odobi, fikrlash, so‘z qo’llash, xulq-atvor.	1) O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablarni o‘zaro bog‘liq holda tavsiflang. Tayanch iboralar: to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, jo’yalilik.	1) O‘qituvchining og‘zaki va yozma nutqiga qo‘yiladigan talablarning umumiy va farqli jihatlarini izohlang. Tayanch iboralar: talaffuz, imlo, tinish belgilari, bayon shakli.
1		Nutq madaniyatining shakllanishida tarixiy va madaniy an’analarning rolini tushuntiring. Tayanch iboralar: qadimiy maktablar, Sharq an’analari, nutq odobi, tarixiy tajriba.	Sharq mutafakkirlarining so‘z va nutq odobiga oid qarashlari qanday umumiy g‘oyalarni ifodalaydi? Tayanch iboralar: Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, axloqiy qarashlar.	Mazkur fanning asosiy vazifalari nimalardan iborat va ular o‘qituvchi faoliyatida qanday namoyon bo’ladi? Tayanch iboralar: bilim, ko‘nikma, malaka, amaliy faoliyat.	O‘qituvchi nutqi madaniyati bilan pedagogik etika o‘rtasidagi munosabatni tahlil qiling. Tayanch iboralar: kasbiy mas’uliyat, muomala me’yorlari, hurmat, nutq odobi.	Bo‘lajak o‘qituvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish uchun qanday amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish mumkin? Tayanch iboralar: munozara, ifodali o‘qish, ma’ruza, tahlil.
2	Nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqadorligi	1) Nutq madaniyatining tilshunoslik bilan aloqasini izohlang. Tayanch iboralar: til tizimi, adabiy me’yor, leksika, grammatika.	1) Nutq madaniyatining mantiq fani bilan bog‘liqligi qanday namoyon bo‘ladi? Tayanch iboralar: hukm, tushuncha, xulosa, fikr izchilligi.	1) Nutq madaniyati va pedagogika o‘rtasidagi aloqani o‘qituvchi faoliyati misolida tushuntiring. Tayanch iboralar: ta’lim jarayoni, tarbiyaviy ta’sir, pedagogik muloqot, namuna.	1) Nutq madaniyati va estetika o‘rtasidagi munosabatni izohlang. Tayanch iboralar: nutq go‘zalligi, ohang, badiiy vosita, estetik ta’sir.	1) Nutq madaniyatini o‘rganishda turli fanlar yondashuvini birgalikda qo‘llashning afzalliklarini tushuntiring. Tayanch iboralar: fanlararo yondashuv, tahlil, nazariya, amaliyot.
2		Nutq madaniyati va uslubiyat o‘rtasidagi munosabatni tahlil qiling. Tayanch iboralar: nutq uslublari, vaziyat, til vositalari, ifoda tanlovi.	Psixologik omillar inson nutqining shakllanishi va namoyon bo‘lishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Tayanch iboralar: tafakkur, xotira, hissiyot, individual xususiyat.	Nutq madaniyatining etika bilan aloqasi qaysi holatlarda ayniqsa yaqqol ko‘rinadi? Tayanch iboralar: odob, xushmuomalalik, mas’uliyat, axloqiy me’yor.	Til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik nutq madaniyatiga qanday ta’sir qiladi? Tayanch iboralar: fikrlash jarayoni, tushuncha, so‘z orqali ifodalash, mazmun.	O‘qituvchi nutqidagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishda tilshunoslik, psixologiya va pedagogika bilimlaridan qanday foydalanish mumkin? Tayanch iboralar: xato tahlili, nutqiy odat, ta’limiy mashq, tuzatish strategiyasi.
3	Nutqning kommunikativ sifatlari. O‘qituvchi nutqining to‘g‘riligi.	1) Nutqning kommunikativ sifatlari tushunchasini izohlang va ularning o’zaro munosabatini yoritib bering. Tayanch iboralar: muloqot samaradorligi, til me’yorlari, mazmun, tinglovchi.	1) Nutqning sofligi va boyligi bir-birini qanday to‘ldiradi? Tayanch iboralar: adabiy til, o‘rinli so‘z, sinonim, noo’rin birliklar.	1) O‘qituvchi nutqining kommunikativ sifatlarini rivojlantirishda qanday usullardan foydalanish mumkin? Tayanch iboralar: tahlil, qayta bayon, tahrir, amaliy mashq.	1) Leksik me’yorlarga rioya qilish nima uchun nutq to‘g‘riligini ta’minlovchi muhim shart hisoblanadi? Tayanch iboralar: so‘z ma’nosi, birikuv, lug‘at tarkibi, qo‘llanish doirasi.	1) O‘zlashma so‘zlardan foydalanishda adabiy me’yorlarga rioya qilish masalasini tahlil qiling. Tayanch iboralar: o‘zlashma qatlam, muqobil birlik, imlo, termin.
3		Nutqning to‘g‘riligi va aniqligi o‘rtasidagi farqni misollar asosida tahlil qiling. Tayanch iboralar: grammatik me’yor, mazmun, so‘z tanlash, tushuncha chegarasi.	Nutqning ifodaliligi uning tinglovchiga ta’sir kuchini qanday o‘zgartiradi? Tayanch iboralar: ohang, tasviriy vosita, hissiy ta’sir, urg‘u.	Fonetik me’yorlarning nutq to‘g‘riligini ta’minlashdagi ahamiyatini tushuntiring. Tayanch iboralar: tovush, talaffuz, urg‘u, orfoepiya.	O‘qituvchining nutqida uchrashi mumkin bo‘lgan me’yoriy xatolarni aniqlash va tuzatish yo‘llarini tavsiflang. Tayanch iboralar: tahrir, xatolar tasnifi, o‘zini nazorat qilish, nutqiy mashq.	Quyidagi vaziyatni tahlil qiling: o‘qituvchi dars davomida grammatik jihatdan noto‘g‘ri tuzilgan jumlalarni tez-tez ishlatadi. Bu holatni bartaraf etish uchun qanday ishlar amalga oshirilishi kerak? Tayanch iboralar: grammatik tahlil, namunaviy nutq, qayta tuzish, o‘zini kuzatish.
4	O‘qituvchi nutqining aniqligi	1) Nutq aniqligi tushunchasining mohiyatini izohlang va uning fikrni anglashdagi ahamiyatini yoritib bering. Tayanch iboralar: voqelik, tushuncha, so‘z ma’nosi, mazmuniy moslik.	1) So‘zning o‘z ma’nosida va ko‘chma ma’noda qo‘llanishi nutq aniqligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Tayanch iboralar: lug‘aviy ma’no, obrazlilik, kontekst, talqin.	1) Paronimlarni farqlamaslik nutqda qanday mazmuniy xatolarga sabab bo‘ladi? Tayanch iboralar: tovush yaqinligi, ma’no farqi, noto‘g‘ri tanlov, leksik me’yor.	1) Nutq aniqligi bilan nutqning mantiqiyligi o‘rtasidagi munosabatni izohlang. Tayanch iboralar: tushunchalar, fikr munosabati, dalillash, izchillik.	1) Noaniq ifodalangan fikr tinglovchida qanday turli talqinlarni yuzaga keltirishi mumkin? Tayanch iboralar: ikki xil tushunish, mazmuniy bo‘shliq, kontekst, muloqotdagi to‘siq.
4		Nutq aniqligi bilan so‘zlovchining predmet yoki hodisani chuqur bilishi o’rtasida qanday bog‘liqlik mavjud? Tayanch iboralar: bilim, tasavvur, nomlash, tafakkur.	Omonim va ko‘p ma’noli so‘zlardan foydalanishda qanday aniqlik muammolari yuzaga kelishi mumkin? Tayanch iboralar: shakliy o‘xshashlik, ma’no tarmoqlari, kontekst, noaniqlik.	Sinonimlardan foydalanishda nutq aniqligini saqlash uchun nimalarga e’tibor berish lozim? Tayanch iboralar: ma’no nozikligi, uslubiy bo‘yoq, vaziyat, mos birlik.	O‘qituvchi ilmiy tushunchalarni talabalarga izohlashda nutq aniqligini qanday ta’minlashi mumkin? Tayanch iboralar: termin, ta’rif, misol, tushuntirish usuli.	Quyidagi vaziyatni tahlil qiling: o‘qituvchi bir tushunchani izohlashda unga mazmunan mos kelmaydigan so‘zni qo‘lladi. Xatoni aniqlash va tuzatish mezonlarini bayon qiling. Tayanch iboralar: terminologik aniqlik, lug‘aviy moslik, tushuncha, qayta ifodalash.
5	O‘qituvchi nutqining mantiqiyligi	1) Nutq mantiqiyligi tushunchasini izohlang va uning fikrlar izchilligi bilan aloqasini yoritib bering. Tayanch iboralar: tafakkur, fikr rivoji, izchillik, mazmuniy bog‘lanish.	1) Sabab va oqibat munosabatining noto‘g‘ri ifodalanishi nutq mazmuniga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Tayanch iboralar: hodisa, sababiy bog‘lanish, natija, dalillash.	1) Gaplar o‘rtasidagi grammatik va mazmuniy bog‘lanishning mantiqiylikka ta’sirini tahlil qiling. Tayanch iboralar: kesim shakli, bog‘lovchi, olmosh, matn yaxlitligi.	1) Mantiqiy xatolar bilan grammatik xatolar o‘rtasidagi farqni misollar asosida izohlang. Tayanch iboralar: mazmuniy ziddiyat, gap qurilishi, fikr munosabati, me’yor.	1) Qarama-qarshi fikrlarni bayon etishda mantiqiy izchillikni saqlash yo‘llarini tavsiflang. Tayanch iboralar: qiyoslash, munosabat, dalil, umumlashtirish.

5		Nutqning mantiqiyligini ta’minlashda tushuncha va hukmlarning o‘rni qanday? Tayanch iboralar: tushuncha, hukm, xulosa, fikrlash amallari.	Nutqda dalil, misol va xulosaning o‘zaro bog‘liqligini tushuntiring. Tayanch iboralar: asoslash, fakt, umumlashtirish, yakuniy fikr.	Matnda fikrlar ketma-ketligining buzilishi qanday tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin? Tayanch iboralar: mavzu almashishi, fikriy uzilish, tartib, idrok.	O‘qituvchi ma’ruzasining mantiqiy tuzilishini shakllantirishda rejaning ahamiyati qanday? Tayanch iboralar: mavzu, kichik qismlar, ketma-ketlik, xulosa.	Quyidagi vaziyatni tahlil qiling: ma’ruzada xulosalar keltirilgan, ammo ularni tasdiqlovchi dalillar yo‘q. Nutqning mantiqiyligini tiklash uchun qanday o‘zgarishlar zarur? Tayanch iboralar: tezis, dalil, misol, asoslangan xulosa.
6	O‘qituvchi nutqining sofligi	1) Nutq sofligi tushunchasini izohlang va uni ta’minlashga ta’sir qiluvchi omillarni tavsiflang. Tayanch iboralar: adabiy til, noo‘rin birliklar, nutqiy me’yor, til sezgisi.	1) Varvarizmlar va ularning nutqdagi qo‘llanish xususiyatlarini izohlang. Tayanch iboralar: begona birlik, adabiy me’yor, o‘rinlilik, nutqiy muhit.	1) Parazit so‘zlar qanday paydo bo‘ladi va ularni muntazam qo‘llash nutq sifatiga qanday ta’sir qiladi? Tayanch iboralar: nutqiy odat, takror, pauza, o‘zini nazorat qilish.	1) Eskirgan so‘zlar va jargonlarning nutq sofligiga munosabatini qanday baholash mumkin? Tayanch iboralar: tarixiy qatlam, ijtimoiy guruh, uslub, qo‘llanish maqsadi.	1) Nutq sofligi va nutq boyligi o‘rtasidagi munosabatni tushuntiring. Tayanch iboralar: lug‘aviy tanlov, sinonimik imkoniyat, me’yor, ifoda xilma-xilligi.
6		Nutqda boshqa tilga oid birliklarning qo‘llanishi qaysi holatlarda soflik masalasini yuzaga keltiradi? Tayanch iboralar: o‘zlashma so‘z, muqobil, kasbiy termin, muloqot muhiti.	Shevaga xos so‘z va shakllarning adabiy nutq sofligiga munosabatini tahlil qiling. Tayanch iboralar: dialektizm, hududiy nutq, adabiy til, uslubiy vazifa.	Nutqda dag‘al, qo‘pol yoki haqoratli birliklardan foydalanish qanday kommunikativ va axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi? Tayanch iboralar: muomala madaniyati, hurmat, tinglovchi hissiyoti, kasbiy etika.	O‘qituvchi nutqidagi ortiqcha takrorlar va keraksiz birliklarni kamaytirish uchun qanday mashqlar samarali bo‘ladi? Tayanch iboralar: nutq yozuvi, tahlil, tahrir, qayta bayon.	Quyidagi vaziyatni tahlil qiling: o‘qituvchi dars davomida keraksiz xorijiy so‘zlar va parazit birliklarni ko‘p ishlatadi. Uning nutqini takomillashtirish yo‘llarini taklif qiling. Tayanch iboralar: muqobil so‘z, nutqiy kuzatuv, lug‘at bilan ishlash, mashq.
7	Nutqning boyligi, jo‘yaliligi va ifodaliligi.	1) Nutq boyligi tushunchasini izohlang va uning til imkoniyatlaridan foydalanish bilan aloqasini yoritib bering. Tayanch iboralar: lug‘at zaxirasi, ifoda xilma-xilligi, til imkoniyatlari, nutqiy mahorat.	1) Nutq boyligi va nutq ifodaliligi o‘rtasidagi farq hamda bog‘liqlikni tushuntiring. Tayanch iboralar: vositalar xilma-xilligi, hissiy ta’sir, obrazlilik, mazmun.	1) O‘qituvchining talabaga murojaat qilish usuli nutq jo‘yaligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Tayanch iboralar: pedagogik munosabat, murojaat shakli, hurmat, vaziyat.	1) Quyidagi vaziyatni tahlil qiling: o‘qituvchi ilmiy anjumanda kundalik so‘zlashuvga xos, ortiqcha erkin ifodalarni ko‘p ishlatdi. Bu holatni nutq jo‘yaliligi nuqtayi nazaridan baholang. Tayanch iboralar: ilmiy muhit, auditoriya talabi, uslubiy moslik, nutqiy vaziyat.	1) Nutq ifodaliligi bilan nutqning aniqligi o‘rtasidagi muvozanatni qanday ta’minlash mumkin? Tayanch iboralar: mazmuniy aniqlik, obrazli ifoda, tushunarlilik, me’yor.
7		Nutqda bir xil so‘z va birikmalarning takrorlanishi qanday kamchiliklarni keltirib chiqaradi? Tayanch iboralar: bir xillik, leksik takror, bayon ravonligi, ifoda imkoniyati.	Nutq jo‘yaliligi tushunchasini izohlang va uning muloqot samaradorligidagi o‘rnini ochib bering. Tayanch iboralar: vaziyat, maqsad, tinglovchi, muvofiq ifoda.	Auditoriya oldida hazil, maqol va iboralardan foydalanishda qanday omillarni hisobga olish kerak? Tayanch iboralar: auditoriya kayfiyati, mavzu, madaniy kontekst, me’yor.	Metafora, o‘xshatish va boshqa tasviriy vositalarning nutqdagi vazifalarini tahlil qiling. Tayanch iboralar: ko‘chma ma’no, obraz, qiyoslash, badiiy ta’sir.	Quyidagi vaziyatni tahlil qiling: o‘qituvchi mavzuni to‘g‘ri va batafsil tushuntiradi, biroq uning nutqi bir xil ohangda davom etadi. Ifodalilikni oshirish uchun qanday usullarni tavsiya qilasiz? Tayanch iboralar: intonatsiya, mantiqiy urg‘u, pauza, ovoz mashqlari.
8	O‘qituvchining nutq texnikasi	1) Nutq texnikasi tushunchasini izohlang va uning o‘qituvchi nutqi madaniyatidagi ahamiyatini ochib bering. Tayanch iboralar: fiziologik imkoniyatlar, ovoz, talaffuz, pedagogik mahorat.	1) To‘g‘ri nafas olish nutqning ravonligi va davomiyligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Tayanch iboralar: nafas taqsimoti, havo oqimi, jumla uzunligi, nutqiy zo‘riqish.	1) Diksiya va artikulyatsiya tushunchalarini farqlang hamda ularning aniq talaffuzdagi o‘rnini izohlang. Tayanch iboralar: nutq tovushlari, talaffuz ravshanligi, nutq a’zolari, tovush hosil bo‘lishi.	1) Ovozdan uzoq muddat samarali foydalanish uchun o‘qituvchi qanday gigiyenik va amaliy qoidalarga rioya qilishi kerak? Tayanch iboralar: ovoz zo‘riqishi, dam olish, suv ichish, ovoz mashqlari.	1) O‘qituvchining mimikasi, imo-ishoralari va tana harakatlari uning og‘zaki nutqi bilan qanday uyg‘unlashishi kerak? Tayanch iboralar: noverbal muloqot, mimika, jest, auditoriya bilan aloqa.
8		Nutq texnikasining asosiy tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘liq holda tavsiflang. Tayanch iboralar: nafas, ovoz, diksiya, artikulyatsiya.	Ovozning asosiy xususiyatlari va ularni pedagogik faoliyatda boshqarish imkoniyatlarini tushuntiring. Tayanch iboralar: balandlik, tembr, kuch, diapazon.	O‘qituvchi nutqidagi talaffuz va ovoz bilan bog‘liq kamchiliklar dars jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Tayanch iboralar: eshitilish, idrok, charchash, auditoriya bilan aloqa.	Nutq texnikasini takomillashtirishda nafas, artikulyatsiya va talaffuz mashqlarining o‘zaro aloqasini tushuntiring. Tayanch iboralar: mashqlar tizimi, mushaklar muvofiqligi, tovush ravshanligi, muntazamlik.	Quyidagi vaziyatni tahlil qiling: o‘qituvchi katta auditoriyada dars o‘tadi, ammo uning ovozi tez charchaydi, ayrim tovushlar noaniq eshitiladi va gap oxirida ovozi pasayib ketadi. Nutq texnikasini yaxshilash uchun qanday amaliy tavsiyalar berasiz? Tayanch iboralar: diafragmal nafas, ovoz mashqlari, diksiya, nutq sur’ati.
9	Nutq madaniyati va uslubiyat	1) Uslubiyatning tilshunoslikdagi o‘rnini izohlang. Uning predmeti va asosiy vazifalarini o‘zaro bog‘liqlikda tushuntiring hamda fikringizni misollar bilan asoslang. Tayanch iboralar: til birliklari; nutq sharoiti; ma’no imkoniyatlari; kommunikativ maqsad.	1) O‘zbek adabiy tilining beshta asosiy funksional uslubini o‘zaro qiyoslang. Har birining maqsadi, qo‘llanish sohasi va xarakterli belgilarini misollar bilan tushuntiring. Tayanch iboralar: kundalik muloqot; ilmiy bayon; rasmiy munosabat; ommaviy axborot; badiiy tasvir.	1) Ilmiy uslubning asosiy janrlarini tavsiflang va ularning o‘zaro farqlarini tushuntiring. Muayyan ilmiy mavzu misolida qaysi janr qanday maqsadda tanlanishini asoslang. Tayanch iboralar: ilmiy maqola; dissertatsiya; monografiya; tadqiqot hisoboti.	1) Publitsistik uslubning jamiyat hayotidagi vazifalarini yoritib bering. Uning axborot berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va ta’sir ko‘rsatish xususiyatlarini boshqa funksional uslublar bilan qiyoslang. Tayanch iboralar: dolzarb voqea; keng auditoriya; muallif munosabati; ijtimoiy ta’sir.	1) Nutq madaniyati va uslubiyat tushunchalarining umumiy va farqli jihatlarini izohlang. Ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi nutqning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini ta’minlashda qanday namoyon bo‘lishini misollar bilan asoslang. Tayanch iboralar: nutq me’yorlari; til vositalari; vaziyatga moslik; kommunikativ samaradorlik.
9		Uslubiyatning so‘z tanlash, grammatik shakllardan foydalanish va gap qurilishini tashkil etish bilan bog‘liq vazifalarini tahlil qiling. Ushbu vositalar matn mazmuniga qanday ta’sir ko‘rsatishini misollar asosida yoritib bering. Tayanch iboralar: so‘z xususiyatlari; grammatik shakl; gap qurilishi; matn mazmuni.	So‘zlashuv uslubiga xos qisqartirilgan shakllar va og‘zaki nutq birliklarining ilmiy yoki rasmiy matnda noo‘rin qo‘llanishi qanday muammolarni keltirib chiqarishi mumkin? Vaziyatlarni qiyoslab, misollar bilan izohlang. Tayanch iboralar: nutq me’yorlari; auditoriya; vaziyat; ifoda tanlovi.	Rasmiy-idoraviy uslubning asosiy xususiyatlarini tahlil qiling. Ariza, buyruq, bayonnoma va shartnoma kabi hujjatlarda aniqlik, standart shakl hamda bir ma’nolilik nima uchun muhimligini izohlang. Tayanch iboralar: hujjat tuzilishi; rasmiy munosabat; shakliy talablar; mazmun izchilligi.	Badiiy uslubning asosiy maqsadi va o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntiring. Metafora, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a va sifatlash kabi tasviriy vositalarning badiiy matndagi vazifasini misollar bilan tahlil qiling. Tayanch iboralar: obrazlilik; tasviriylik; hissiy ta’sir; estetik taassurot.	Bir matnda bir nechta funksional uslubga xos belgilar uchrashi mumkinligini izohlang. Matnning asosiy kommunikativ maqsadi uning yetakchi uslubini belgilashini misollar asosida tahlil qiling. Tayanch iboralar: aralash uslubiy belgilar; yetakchi maqsad; matn tuzilishi; auditoriya.

10	Nutq madaniyati va adabiy til me’yorlari.	1) Adabiy til me’yori tushunchasini izohlang va uning nutq madaniyatidagi ahamiyatini ko‘rsating. Tayanch iboralar: umumiylik, barqarorlik, qoida, qo‘llanish.	1) Nutq madaniyati bilan adabiy til me’yorlari o‘rtasidagi munosabatni tushuntiring. Tayanch iboralar: to‘g‘rilik, qo‘llash, savodxonlik, nutqiy amaliyot.	1) Leksik me’yorlarga rioya qilishning nutq sifatiga ta’sirini izohlang. Tayanch iboralar: so‘z tanlash, ma’no, o‘rinlilik, lug‘at.	1) Imlo va punktuatsiya me’yorlariga rioya qilish nima uchun muhim? Tayanch iboralar: yozma nutq, imlo, tinish belgisi, mazmun.	1) Adabiy til me’yorlari va shevalar munosabatini tushuntiring. Tayanch iboralar: hududiy xususiyat, umumxalq tili, adabiy shakl, muloqot.
10		Adabiy til me’yorlarining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tavsiflang. Tayanch iboralar: tarixiy taraqqiyot, jamiyat, adabiyot, ta’lim.	Fonetik va orfoepik me’yorlarning og‘zaki nutqdagi ahamiyatini yoritib bering. Tayanch iboralar: tovush, talaffuz, urg‘u, ohang.	Grammatik me’yorlarning nutqning to‘g‘ri tuzilishidagi o‘rnini tushuntiring. Tayanch iboralar: so‘z shakli, gap qurilishi, kelishik, moslashuv.	Uslubiy me’yor buzilishining nutq mazmuni va ta’sirchanligiga ta’sirini tahlil qiling. Tayanch iboralar: vaziyat, uslub, noo‘rin birlik, tushunarlilik.	Adabiy til me’yorlariga amal qilishni rivojlantirish usullarini tavsiflang. Tayanch iboralar: mutolaa, tahrir, lug‘at, amaliy mashq.
11	Grammatik stilistika va nutq madaniyati	1) Grammatik stilistikaning mohiyatini, predmeti va vazifalarini izohlang. Grammatik shakllarning turli nutq vaziyatlarida uslubiy imkoniyatlari qanday namoyon bo‘lishini misollar bilan tushuntiring. Tayanch iboralar: grammatik vositalar; uslubiy imkoniyat; nutq vaziyati; kommunikativ maqsad.	1) Grammatik shakllarning nutq madaniyatiga ta’sirini tushuntiring. Grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan gap bilan uslubiy jihatdan maqsadga muvofiq tuzilgan gap o‘rtasidagi farqni misollar yordamida izohlang. Tayanch iboralar: grammatik me’yor; uslubiy muvofiqlik; gap tuzilishi; nutq sifati.	1) Birlik va ko‘plik shakllarining uslubiy vazifalarini qiyoslang. Ko‘plik shaklining hurmat, umumlashtirish yoki ta’kid ma’nolarini ifodalash imkoniyatlarini misollar bilan tushuntiring. Tayanch iboralar: son kategoriyasi; hurmat ifodasi; umumlashtirish; kontekst.	1) Gap bo‘laklarining tartibi va inversiyaning uslubiy imkoniyatlarini tushuntiring. Oddiy so‘z tartibi bilan o‘zgargan so‘z tartibini qiyoslab, bunday o‘zgarishlarning ta’kid va hissiy ta’sirga munosabatini misollar bilan asoslang. Tayanch iboralar: gap bo‘laklari; so‘z tartibi; inversiya; mantiqiy urg‘u.	1) Grammatik me’yorlarning buzilishi nutq madaniyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiling. Kelishik, egalik, son va gap bo‘laklari moslashuvi bilan bog‘liq xatolarga misollar keltirib, ularni tuzating va sabablarini izohlang. Tayanch iboralar: grammatik xato; moslashuv; adabiy til me’yori; tahrirlash.
11		So‘z turkumlarining uslubiy imkoniyatlarini tahlil qiling. Ot, sifat, fe’l va olmoshlarning matn mazmuni hamda ta’sirchanligini shakllantirishdagi o‘rnini misollar asosida qiyoslang. Tayanch iboralar: so‘z turkumlari; ma’no nozikligi; tasviriy ifoda; matn mazmuni.	Fe’l zamonlari va mayllarining uslubiy xususiyatlarini tahlil qiling. Ularning voqea-hodisalarni bayon etish, muallif munosabatini ifodalash va tinglovchiga ta’sir ko‘rsatishdagi vazifalarini misollar bilan yoritib bering. Tayanch iboralar: zamon shakllari; mayl kategoriyasi; muallif munosabati; ifoda ta’sirchanligi.	Kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilarning gap mazmunini shakllantirishdagi o‘rnini tahlil qiling. Ularning noo‘rin qo‘llanishi fikrning aniqligi va mantiqiyligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini misollar orqali izohlang. Tayanch iboralar: kelishik shakllari; sintaktik munosabat; ma’no aniqligi; grammatik me’yor.	Sodda va qo‘shma gaplarning uslubiy imkoniyatlarini qiyoslang. Ilmiy, rasmiy-idoraviy va badiiy matnlarda gap qurilishining tanlanishi fikrning izchilligi, aniqligi va ta’sirchanligiga qanday ta’sir qilishini tahlil qiling. Tayanch iboralar: sodda gap; qo‘shma gap; sintaktik qurilish; funksional uslub.	Zamonaviy yozma va og‘zaki muloqotda grammatik stilistika talablariga rioya qilishning ahamiyatini asoslang. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar, ommaviy chiqishlar yoki rasmiy hujjatlardan misollar keltirib, grammatik vositalarni vaziyatga mos tanlash yo‘llarini taklif qiling. Tayanch iboralar: yozma nutq; og‘zaki muloqot; grammatik tanlov; nutqiy mas’uliyat.
12	Har bir nutq uslubini belgilaydigan xususiyatlar. Terminlar.	1) Nutq uslubini belgilaydigan asosiy xususiyatlarni izohlang. Uslubning maqsadi, qo‘llanish sohasi va til vositalari o‘rtasidagi munosabatni misollar yordamida tushuntiring. Tayanch iboralar: kommunikativ maqsad; qo‘llanish sohasi; til vositalari; uslubiy xususiyat.	1) So‘zlashuv va publitsistik uslublarning o‘xshash hamda farqli jihatlarini tahlil qiling. Har ikki uslubda qo‘llanadigan til vositalarining tinglovchi yoki o‘quvchiga ta’sirini misollar bilan tushuntiring. Tayanch iboralar: norasmiy muloqot; ommaviy auditoriya; hissiy ifoda; ta’sirchanlik.	1) Rasmiy-idoraviy uslubning asosiy xususiyatlarini tahlil qiling. Rasmiy hujjatlarda standart shakllar, bir ma’nolilik va mazmunning ixchamligi nima uchun muhim ekanini misollar bilan asoslang. Tayanch iboralar: hujjat tili; qoliplashgan birliklar; rasmiylik; mazmun aniqligi.	1) Termin tushunchasini izohlang va terminlarning ilmiy hamda kasbiy muloqotdagi vazifalarini tahlil qiling. Termin bilan kundalik nutqda ishlatiladigan umumiste’mol so‘zlari o‘rtasidagi farqni misollar yordamida ko‘rsating. Tayanch iboralar: maxsus tushuncha; terminologik tizim; ma’no aniqligi; kasbiy muloqot.	1) Terminlardan foydalanishda aniqlik, izchillik va me’yorlarga rioya qilishning ahamiyatini tahlil qiling. Ilmiy matnda terminlarni noo‘rin almashtirish yoki bir tushunchani turli nomlar bilan ifodalash qanday muammolarni keltirib chiqarishini misollar bilan izohlang. Tayanch iboralar: terminologik aniqlik; tushuncha birligi; izchillik; ilmiy bayon.
12		O‘zbek adabiy tilining funksional uslublarini o‘zaro qiyoslang. Ularning har birini ajratib turuvchi belgilarni va muayyan nutq vaziyatida uslub tanlash zaruratini tahlil qiling. Tayanch iboralar: so‘zlashuv; ilmiy bayon; rasmiy munosabat; badiiy tasvir.	Ilmiy uslubni belgilaydigan xususiyatlarni izohlang. Ilmiy matnda aniqlik, mantiqiy izchillik va xolislik talablarining bajarilishi fikrning ishonchliligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiling. Tayanch iboralar: aniqlik; dalillash; xolislik; izchil bayon.	Badiiy uslubning boshqa funksional uslublardan farqini tushuntiring. Badiiy tasvir vositalarining obraz yaratish, hissiyot uyg‘otish va muallif individual uslubini namoyon etishdagi rolini misollar bilan tahlil qiling. Tayanch iboralar: obrazlilik; metafora; o‘xshatish; individual ifoda.	Turli fan va kasb sohalariga oid terminlarning qo‘llanish xususiyatlarini qiyoslang. Bir terminning muayyan sohada aniq ma’noga ega bo‘lishi va uni noo‘rin qo‘llash natijasida tushunmovchilik yuzaga kelishi mumkinligini misollar bilan tushuntiring. Tayanch iboralar: sohaviy termin; maxsus ma’no; kontekst; tushunmovchilik.	Quyidagi vaziyatni tahlil qiling: bir xil mavzu — kitobxonlikning ahamiyati — haqida ilmiy maqola, rasmiy ma’lumotnoma, publitsistik maqola va badiiy matn yozilishi kerak. Har bir holatda qaysi uslubiy xususiyatlar va til vositalarini tanlagan bo‘lardingiz? Javobingizni misollar bilan asoslang. Tayanch iboralar: matn maqsadi; auditoriya; terminlar; uslubiy tanlov.